

**FRANSUZ VA O‘ZBEK ILMIY DISKURSIDA PERSUAZIV
BIRLIKLARNING QIYOSIY-SEMANTIK TAHLILI**

Qodirova Naziraxon Murodbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası

o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

<https://orsid.org/0009-0004-5676-5675>

naziraqodirova96@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada fransuz va o‘zbek ilmiy matnlarida persuazivlikni ifodalovchi til birliklarining semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda fransuz tilshunosligida argumentatsiya semantikasi bilan bog‘liq bo‘lgan til argumentatsiyasi nazariyasi, toposlar nazariyasi hamda stereotiplar nazariyasining ilmiy asoslari yoritiladi. Ilmiy diskursda argumentativ bog‘lovchilar, modal birliklar, metadiskurs markerlari, baholovchi va evidensial vositalarning persuaziv funksiyasi fransuz va o‘zbek tillari materiallari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida har ikki tilda persuaziv birliklarning muallif ilmiy pozitsiyasini asoslash, argumentlarni mantiqiy bog‘lash va adresatni ilmiy xulosalarning ishonchligiga ishontirishdagi o‘rni aniqlanadi. Shuningdek, fransuz tilida persuazivlikning asosan grammatik va sintaktik vositalar orqali, o‘zbek tilida esa leksik-semantik hamda diskursiv vositalar orqali ifodalanishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy diskurs, persuazivlik, semantik tahlil, argumentatsiya, til argumentatsiyasi nazariyasi, toposlar nazariyasi, stereotiplar nazariyasi, argumentativ bog‘lovchilar, modal birliklar, metadiskurs, pragmatika, fransuz tili, o‘zbek tili*

Аннотация: *В статье проводится сопоставительный семантический анализ языковых средств, выражающих персуазивность во французских и узбекских научных текстах. Рассматриваются основные положения теории аргументации в языке, теории топосов и теории стереотипов как важнейших направлений современной французской семантики. Особое внимание уделяется аргументативным коннекторам, модальным конструкциям, метадискурсивным маркерам, оценочным и эвиденциальным средствам, реализующим персуазивную функцию в научном дискурсе. Результаты исследования показывают, что данные языковые единицы обеспечивают логическую связность аргументации, обоснование авторской позиции и повышение убедительности научного изложения. Выявлено, что во французском научном дискурсе персуазивность преимущественно выражается грамматическими и синтаксическими средствами, тогда как в узбекском научном дискурсе преобладают лексико-семантические и дискурсивные средства.*

Ключевые слова: *научный дискурс, персуазивность, семантический анализ, аргументация, теория аргументации в языке, теория топосов, теория стереотипов, аргументативные коннекторы, модальность, метадискурс, прагматика, французский язык, узбекский язык.*

Abstract: *This article presents a comparative semantic analysis of persuasive linguistic units in French and Uzbek scientific texts. The study examines the theoretical foundations of the Theory of Argumentation in Language, the Theory of Topoi, and the Theory of Stereotypes within French semantic research. Particular attention is paid to argumentative connectors, modal constructions, metadiscourse markers, evaluative and evidential expressions as the main means of persuasion in scientific discourse. The findings demonstrate that these linguistic units contribute to the logical organization of scientific argumentation, strengthen the author's position, and enhance the credibility of scientific conclusions. The study also reveals that persuasion in French scientific discourse is mainly realized through grammatical and syntactic means, whereas Uzbek scientific discourse relies more extensively on lexical-semantic and discourse-related devices.*

Keywords: *scientific discourse, persuasion, semantic analysis, argumentation, Theory of Argumentation in Language, Theory of Topoi, Theory of Stereotypes, argumentative connectors, modality, metadiscourse, pragmatics, French language, Uzbek language.*

Semantik qiyosiy tahlil fransuz tilida uch guruhga bo‘lib o‘rganiladi: 1. Til argumentatsiyasi nazariyasi (Théorie de l’argumentation dans la langue), 2. Toposlar nazariyasi (Théorie des topoï), 3. Stereotiplar nazariyasi (Théorie des stéréotypes).

Mazkur nazariyalar uch asosiy yo‘nalish bo‘yicha ko‘rib chiqiladi: 1. Til birliklari ma‘nosining tabiati va uning inson faoliyati bilan bog‘liqligi; 2. Leksik ma‘no hamda uning real voqelik bilan munosabati, xususan, referensiya masalasi; 3. Semantika va ritorika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.

Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu nazariyalarning mazmuni, ilmiy asoslari va qo‘llanish imkoniyatlarini umumlashtirib ko‘rsatishdan iborat. Shu sababli mualliflar murakkab nazariy tafsilotlarga to‘xtalmasdan, asosiy g‘oyalarni tanlangan misollar orqali yoritishni maqsad qilganlar.

Dastlab, til argumentatsiyasi nazariyasining shakllanishiga asos bo‘lgan asosiy g‘oyalarni o‘rganadi. Toposlar nazariyasi ushbu yo‘nalishning keyingi rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bunda tadqiqotning bosh maqsadi nutqiy ifodalarni talqin qilish nazariyasini, ya‘ni gap ma‘nosini tushuntiruvchi nazariy modelni yaratish edi .

Bu yondashuv ikki muhim savolni yuzaga keltiradi:

a) Gapning ma‘nosi qanday hosil bo‘ladi?

b) Gapning ma‘nosi deganda nima tushuniladi?

Birinchi savolga mualliflarning javobi shundan iboratki, gapning ma‘nosi uning tashqi grammatik shaklidan bevosita kelib chiqmaydi. Ma‘noni aniqlash uchun tilning chuqur semantik tuzilmasiga murojaat qilish zarur. Bunda maxsus nazariy birliklar va ularni o‘zaro bog‘lovchi qoidalar qo‘llaniladi. Boshqacha aytganda, gapning ma‘nosi yuzaki shakldan emas, balki abstrakt semantik birliklar asosida "hisoblab chiqiladi". Ushbu birliklar generativ grammatika nazariyasidagi chuqur tuzilma tushunchasiga o‘xshash vazifani bajaradi. Demak, gapning yuzaki shakli aslida ko‘rinmaydi, chunki ular ichki semantik jarayonlarning natijasi hisoblanadi.

Ikkinchi savolni boshqacharoq ifodalab, chuqur semantik qiymat nimadan iborat? deb aytilsa, savolga javob berishda mualliflar enonsiatsiya tushunchasiga murojaat qilishni ma’qul ko’radilar. Enonsiatsiya deganda ma’lum bir tarixiy va kommunikativ vaziyatda gapning aytilishi, ya’ni nutqning yuzaga kelish jarayoni tushuniladi. Jarayon va uning natijasi nuqtai nazaridan qaralganda, enonsiatsiya — bu jarayon, gap esa uning mahsulidir.

Shu sababli gapning ma’nosi faqat uning mazmuni bilan emas, balki o’zining aytilish jarayonini qanday ifodalashi bilan ham belgilanadi. Masalan, «J’exige une réponse» («Men javob talab qilaman») gapida faqat axborot emas, balki talab qilish ma’nosi ham mavjud. Olimlarning fikricha, bunday pragmatik mazmun gapning keyingi talqinida emas, balki uning chuqur semantik tuzilmasidanoq mavjud bo’ladi.

Agar pragmatika gaplarning nutqiy ta’siri va kommunikativ vazifasini o’rganuvchi soha deb qaralsa, unda pragmatik ma’no semantik tizimning eng chuqur bosqichidayoq shakllanadi. Bu yondashuv integrallashgan pragmatika deb ataladi. Unga ko’ra, chuqur semantik tuzilma pragmatik xususiyatlarni ham o’z ichiga oladi. Til argumentatsiyasi nazariyasining asosiy vazifasi ana shu pragmatik-semantik ko’rsatkichlarning mohiyatini aniqlashdan iborat.

Olimlar ilmiy diskursiv bog’lanishlarni kuzatar ekanlar, ularni an’anaviy semantik nazariya yordamida izohlab bo’lmazligini aniqladilar. Klassik yondashuvlarda gapning asosiy ma’nosi tasvirlovchi axborot bilan izohlanadi. Biroq ko’plab nutqiy ketma-ketliklarda «dalil – xulosa» munosabati yuzaga keladi. Shu asosda ayrim argumentativ munosabatlar ritorikaning keyingi mahsuli emas, balki tilning o’ziga xos semantik xususiyati ekanligini ilgari suradilar. Demak, argumentativ yo’nalish til birliklarining ichki ma’nosida mavjud bo’lib, u semantik tahlilning dastlabki bosqichidayoq namoyon bo’ladi.

Xususan, ayrim informativ ma’nolar aslida undan ham chuqurroq argumentativ ma’nolardan kelib chiqishini ko’rsatadi. Bu esa an’anaviy qarashlarga zid, chunki klassik nazariyalarda avval axborot ma’nosi mavjud bo’lib, argumentatsiya keyinchalik yuzaga keladi, deb hisoblanadi.

Ilmiy diskursda ilmiy bilimlar bayon qilinar ekan, yangi bilimlar ilmiy asoslar va dalillar asosida yoritilishi zaruriyati tug’uladi. Zamonaviy tadqiqotlarda kuzatilishicha, ilmiy diskurs faqat ilmiy ma’lumotlarni dalillar bilan asoslashdan iboratligi qayd etiladi. Muallif o’z ilmiy qarashlari va g’oyalarini ilgari surish va ichonchliligini ta’minlash uchun persuaziv birliklardan unumli foydalanishga harakat qiladi. Shu nuqtayi nazardan persuaziv birliklar ilmiy bayonotda muhim kommunikativ-pragmatik xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Ilmiy diskurs tarkibidagi modal birliklar, argumentativ bog’lovchilar, baholovchi leksik birliklar, metadiskurs belgilari, evidensial vositalar hamda muallif pozitsiyasini ifodalovchi til birliklari persuazivlikni ifodalab keladi. Ushbu til birliklari diskursda ma’lum ma’noni anglatishi bilan birga ilmiy jihatdan diskursning argumentative tuzilishini hamda muallifning maqsadini tinglovchiga ishonchli tarzda yetkazishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Fransuz va o’zbek ilmiy diskurslari persuazivlikni ifodalash usullari jihatidan umumiy va o’ziga xos xususiyatlarga ega. Fransuz ilmiy matnlarida argumentativ bog’lovchilar (donc, en effet, par conséquent, toutefois), modal konstruksiyalar (il convient de, il faut, il

semble que) va metadiskurs markerlari faol qo‘llaniladi. Quyidagi misollar orqali ularni persuazivlik ifodalishi kuzatiladi.

Donc: «Nous nous proposons donc de faire apparaître, dans un domaine particulier, un ensemble de phénomènes qui mettent en échec la thèse néopositiviste sous l'une ou l'autre de ses deux formes, en empêchant d'établir, entre sémantique et pragmatique, un ordre linéaire». (Anscombe Jean-Claude, Ducrot Oswald. L'argumentation dans la langue. In: Langages, 10^e année, n°42, 1976. Argumentation et discours scientifique. -P.7.) Mazkur jumla ilmiy maqoladan keltirilgan bo‘lib, donc argumentativ bog‘lovchi sifatida qo‘llanilgani hamda u semantik jihatdan oldingi mulohazalardan xulosa chiqarish ma‘nosini ifodalaydi. Bunda donc bog‘lovchisi adresatga avvalgi mulohalarga asoslanib xulosa chiqarilgani va muallif ilmiy pozitsiyasini mantiqiy asoslashga xizmat qilgani aniqlandi.

Demak: «Demak, xalq og‘zaki ijodini o‘rgatish orqali bolalarda nafaqat badiiy tafakkur, balki ma‘naviy onglik, mustahkam axloqiy pozitsiya va milliy o‘zlikni anglash hissi shakllanadi. Bu esa ta‘lim tizimida xalq merosini o‘rganishga yangicha yondashuv, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zaruratini yuzaga keltiradi ». (Sh.Turdiyev. Xalq og‘zaki ijodini o‘rgatish orqali bolalarining ma‘naviy dunyoqarashni shakllantirishda ning o‘rni // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025. -№ 11. – B.765) Ushbu misolda persuazivlikning bir necha vositalari kuzatiladi. Demak argumentativ bog‘lovchisi oldingi mulohazalardan mantiqiy xulosa chiqarish semantikasini ifodalasa, nafaqat..., balki... konstruksiyasi esa muallif fikrining argumentativ kuchini oshirib, xalq og‘zaki ijodining ko‘p qirrali ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu esa birikmasi sabab–natija munosabatini bilgan holda xulosaning mantiqiy davomiyligini ko‘rsatadi. Zaruratini birligi persuaziv birlik sanalib, ilgari surilgan fikrni amalga oshirilishi lozim bo‘lgan obyektiv ehtiyoj sifatida talqin qiladi. O‘zbek tili ilmiy diskursida persuaziv birliklarning ko‘p qo‘llanilishi ilmiy bayonning argumentativligini kuchaytiradi va o‘quvchini muallif ilgari surayotgan g‘oyaning asoslanganligiga ishonitirishga xizmat qiladi.

Fransuz va o‘zbek ilmiy diskursida persuazivlikni ifodalovchi birliklarning semantik jihatdan umumiyliги diskurs jarayonida muallifning ilmiy pozitsiyasini asoslash, argumentlarni mantiqiy bog‘lash va adresatni ilgari surilgan fikrning ishonchliligiga ishonitirishga xizmat qilishida kuzatildi. Har ikki tilda argumentativ bog‘lovchilar, modal birliklar, baholovchi leksik vositalar va metadiskurs markerlari persuaziv birliklar tarkibini tashkil etsa-da, biroq ularning lingvistik ifodalanishida ayrim farqlar mavjudligi seziladi. Bunda fransuz ilmiy diskursida persuazivlik ko‘proq grammatiklashgan argumentativ bog‘lovchilar va shaxssiz modal konstruksiyalar iborat bo‘lsa, o‘zbek ilmiy diskursida kirish so‘zlar, modal so‘zlar va tayyor metadiskurs formulalari ustunlik qilishi aniqlandi.

Umuman olganda, fransuz tilida persuazivlik ko‘proq sintaktik va grammatik vositalar, o‘zbek tilida esa leksik-semantik va diskursiv vositalar orqali namoyon bo‘lishi misollar bilan asoslandi. Keltirilgan misollar asosida ikki til ilmiy diskursining milliy-pragmatik xususiyatlari o‘ziga xosligi ko‘rsatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anscombe J.-C., Ducrot O. L'argumentation dans la langue // *Langages*. – 1976. – Vol. 10. – № 42. – P. 5–27.
2. Ducrot O. Dire et ne pas dire. Principes de sémantique linguistique. – Paris : Hermann, 1972. – 237 p.
3. Ducrot O. Le Dire et le Dit. – Paris : Minuit, 1984. – 237 p.
4. Carel M., Ducrot O. La Sémantique argumentative. Une introduction à la théorie des blocs sémantiques. – Paris : CNRS Éditions, 2005. – 186 p.
5. Plantin C. L'argumentation. – Paris : Seuil, 1996. – 96 p.
6. Kerbrat-Orecchioni C. L'énonciation. De la subjectivité dans le langage. – Paris : Armand Colin, 2009. – 320 p.
7. Turdiyev Sh. Xalq og‘zaki ijodini o‘rgatish orqali bolalarining ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishning o‘rni // *Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar*. – 2025. – № 11. – B. 765–771.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent : O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 b.
9. Mahmudov N. Til. – Toshkent : Akademnashr, 2013. – 352 b.
10. Fairclough N. *Analysing Discourse: Textual Analysis for Social Research*. – London : Routledge, 2003. – 270 p.
11. Hyland K. *Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing*. – London : Continuum, 2005. – 230 p.
12. Van Dijk T. A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. – Cambridge : Cambridge University Press, 2008. – 267 p.